



ASAKA — O‘ZBEKISTON AVTOMOBILSOZLIGI MARKAZI VA QADIMIY TARIX MASKANI

NEMATOVA MUSLIMA MADAMINJON
QIZI

Andijon davlat chet tillari instituti Gid hamrohligi
va tarjimonlik yo`nalishi 3-kurs talabasi

ILMIY RAHBAR: AXMEDOVA M.T.

Annotatsiya: Maqolada Asaka shahrining kelib chiqishi, Sak qabilalari bilan bog‘liqligi, “Asaka” nomining etimologiyasi, shuningdek, sobiq SSR davridan Leninsk atalishi hamda mustaqillik yillarida tarixiy nomining tiklanishi ko‘rib chiqiladi. Maqola Asaka shahrining qadimiy yurt sifatidagi tarixiy ahamiyatidan tortib, zamonaviy sanoat markaziga aylanish jarayonigacha bo‘lgan o‘zgarishlarini keng qamrab beradi va uning tarixiy hamda madaniy o‘ziga xosligini yoritadi.

Kalit so‘zlar: Asaka shahri, O‘zbekiston avtomobilsozligi, Leninsk, tarixiy nomlar, Sak qabilalari, Assakenlar, Asvaka, Otliqlar yurti, Dayyuan davlati, tulpor haykali, turkiy etnologiya, burgut totemi, Assikal urug‘i, o‘rta asrlar tarixi, Farg‘ona vodiysi.

Аннотация: В статье рассматривается происхождение города Асака, его связь с Сакскими племенами, этимология названия “Асака”, а также название Ленинск со времен бывшего СССР и восстановление исторического названия в годы независимости. В статье подробно рассказывается об изменениях, которые претерпел город Асака, от его исторического значения как древней Земли до превращения в современный промышленный центр, и освещается его историческая и культурная самобытность.

Ключевые слова: Город Асака, автомобильная промышленность Узбекистана, Ленинск, исторические названия, сакские племена, Ассакены,



асвака, земля всадников, государство дайюань, статуя стервятника, тюркская этнология, тотем Орла, клан Ассикалов, средневековая история, Ферганская долина

Annotatsiya: *The article examines the origin of the city of Asaka, its connection with the Saka tribes, the etymology of the name “Asaka”, as well as the name Leninsk from the time of the former USSR and the restoration of the historical name during the years of independence. The article describes in detail the changes that the city of Asaka has undergone, from its historical significance as an ancient Land to its transformation into a modern industrial center, and highlights its historical and cultural identity.*

Key words: *Asaka city, Uzbek automobile industry, Leninsk, historical names, Sak tribes, Assakens, Asvaka, Land of the Horsemen, Dayuan state, Tulpor statue, Turkic ethnology, Eagle totem, Assikal clan, Medieval history, Fergana Valley.*

O‘zbekistonning mashinasozlik markazi hisoblangan Asaka shahri bugun zamonaviy sanoat markazi sifatida tanilgan bo‘lsa-da, uning tarixi juda qadimiy ildizlarga ega. Bu shahar 1937–1991-yillarda V.I. Lenin sharafiga Leninsk deb atalgan, mustaqillik yillarida esa tarixiy nomi — Asaka qayta tiklandi. Bu nafaqat shahar nomining tiklanishi, balki xalqning tarixiy xotirasiga qaytish ramzi hamdir.

Nomning kelib chiqishi va etimologiyasi

“Asaka” nomining kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Tadqiqotchilarning ayrimlari bu nomni sak qabilalari bilan bog‘laydi. Miloddan avvalgi VI–V asrlarda O‘rta Osiyoda yashagan bu qabila ba’zi manbalarda “assakenlar” deb atalgan. Ularning tilida “asvaka” — “ot”, “assaka” esa “otliqlar” ma’nosini bildirgan. Shu boisdan, ayrim tarixchilar Asaka atamasi “otliqlar yurti” degan ma’noga ega deb hisoblaydilar. Qadimshunoslar vodiyning sharqiy qismida topilgan toshlardagi ot tasvirlari orqali bu hududda qadimda nasldor otlar boqilganini taxmin qilishgan. Shuningdek, mashhur tarixchi B.A. Litvinskiy ham Asaka tarixini Farg‘onada yashagan sak qabilalari bilan bog‘laydi. Uning fikricha, qadimda



Pomirda yashagan saklar yurtiga Assakana deyilgan, va Aleksandr Makedonskiy Hindistonga aynan shu yo‘l orqali o‘tgan.

Asaka — chavandozlar yurti

Arxeolog olim B.X. Matboboyev esa Asaka tarixini qadimgi Dayyuan (Farg‘ona) davlati bilan bog‘laydi. U hind tilidagi “asvaka” (ot) va “assaka” (otliqlar, chavandozlar) so‘zlariga asoslanib, Asaka nomi “otliqlar yurti” degan ma’noni bildiradi, deb ta’kidlaydi. Shu ramziy ma’noga mos ravishda, 1997-yilda Asaka shahriga kiraverishdagi maydonga tulpor ot haykali o‘rnatilgan.

Turkiy ildizlar va totemizm bilan bog‘liq qarashlar

Nomshunos olim S. Qorayev ba’zi nasabnomalarda “asaka” urug‘i o‘zbek va qirg‘izlarning sayaq qabilasi tarkibida tilga olinganini qayd etadi. Shuningdek, Oltinko‘l tumanidagi Asakalik qishlog‘i hamda Ustyurt platosidagi Asakaovdon botig‘i nomlari ham shu etnik guruh bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Professor A. Teshaboyev esa “as” so‘zini qadimgi turkiy tilda “burgut” yoki “lochin” ma’nosida talqin qiladi. Bu qarash o‘tmishda turk urug‘lari orasida “ass” — burgut urug‘i mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bois, Asaka nomi “burgutlar yurti” degan ma’noni ham ifodalashi mumkin.

Ilk o‘rta asrlar bilan bog‘liq qarashlar

Tarixchi akademik A. Muhammadjonov esa Asaka so‘zini “Assikal” shaklida talqin qilib, “ass” — turkiy urug‘, “kal” — suv yoki soy ma’nosida tushuntiradi. Bu fikrni tarixchi B. Ahmedov ham qo‘llab-quvvatlab, Asaka va uning atrofidagi hududlarda ilk o‘rta asrlarda “ass” etnik guruh vakillari yashaganini aytadi.

Xulosa

Asaka nomining ma’nosi va kelib chiqishi haqida turli ilmiy qarashlar mavjud bo‘lsa-da, barchasini birlashtiruvchi jihat — bu shahar qadimdan sivilizatsiya, otliqlik va madaniyat markazi bo‘lib kelganidir. Bugungi kunda Asaka nafaqat tarixiy o‘tmishini saqlab qolgan, balki O‘zbekiston avtomobilsozligining yuragi, zamonaviy sanoat va texnologiyaning timsoliga aylangan shahar sifatida e’tirof etiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA AXBOROT MANBALARI

- 1 Toponomika o'quv qo'llanma-Q.M.Hakimov,M.T.Mirakmalov,-
Toshkent:"Tafakkur avlodi", 2020.
- 2 Ahmadaliyev.Yu.I. Toponimika va geografik terminshunoslik.-Farg'ona. 2018.
- 3 Wikipedia.Uz
- 4 geo.uz
- 5 www.ziyo.net
6. M Axmedova, [25.12.2025 9:58]
Soliyeva, S., & Ahmedova, M. (2024). HARMONY BETWEEN BORDERS:
LEADING INTERCULTURAL DIALOGUES. THE THEORY OF RECENT
SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(21), 416-419.
7. M Axmedova, [25.12.2025 10:00]
Axmedova, M., & Nuriloh, H. (2024). BUYUK IPAK YO'LINING O'RTA O'SIYO
RENESANSIGA TA'SIRI. Science and innovation, 3(Special Issue 34), 37-39.